UMUMINSONIY QADRIYATLARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Navruzova Muyassar G‘aybullayevna
Osiyo xalqaro universiteti f.f.f doktori, (PhD), dotsent
E-mail: zmansurova74@gmail.com
Mansurova Zarina Nurmatovna
Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
E-mail: zmansurova74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba'zi dalillar va ularning nazariy asoslarini keltiradi. Yoshlarni erkin fikrlashga o’rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko’maklashish, o’z-o’zini idora va nazorat qila ola bilishini, shakllantirish uchun zarur bo’lgan omillar ko’rsatilgan. milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir.

Kalit so’zlar: Qadriyat, vatanparvarlik, mustaqillik,ijtimoiy, tanazzul, adolat, mezon, bo‘hron, tamaddun, genofond,adolat, nisbiylik.

Аннотация: В этой статье автор приводит некоторые факты и теоретические основы воспитания нашей молодежи в духе приверженности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Указаны факторы, необходимые для того, чтобы научить молодых людей мыслить свободно, способствовать пониманию смысла жизни, формировать способность к самоконтролю и контролю. национальные и общечеловеческие ценности-мощный фактор, способствующий развитию общества и его фундамента, успехов, достигнутых в историческом развитии нации, из поколения в поколение.

Ключевые слова: ценность, патриотизм,независимость, социальное, упадок, справедливость, критерий, буря, тамаддун,генофонд, справедливость, относительность.

Annotation: in this article, the author cites some arguments and their theoretical foundations regarding the upbringing of our youth in the spirit of loyalty to our national and universal values. The factors necessary to train young people to think freely, to promote their understanding of the meaning of life, to establish that they are able to control and control themselves. national and universal values are a powerful factor in the development of society and its basis, the achievement of the historical progress of the nation from generation to generation.

Keywords: value, patriotism, independence,social, degradation, Justice, criterion, bull, tamaddun, gene pool,Justice, relativity.

ISSN 3030-3907

Kirish

Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hosoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko‘lamli va serqirra tushnchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma’no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini bosa olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi va uning namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dialektik tarzda bog‘langan umumiy tizimni, uning asosiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdir. Taraqqiyot, innovatsiyalarni yoyishga qaratilgan zamonaviy qadriyatlar yoyilishi sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni unutmaslik muhim. Ana shunday qadriyatlardan biri vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik shaxsning ma’naviy-axloqiy qadriyati sifatida doimo o‘z ifodasini topadi. Qadriyatlarga qarab maqsadlar belgilanadi va ularga erishish vositalari belgilanadi. Bu borada yosh avlodning vatanparvarlik ongini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Materiallar va usullar. Asosiy yondashuvlar sifatida institutsional va tarkibiy-funksional yondashuvlardan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: empirik tadqiqotlar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rishga imkon beradi. Umuminsoniy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga doir tadqiqotlarda, empirik metod orqal so‘rovnomalar va intervyular o‘tkaziladi, yoshlarning qadriyatlar tizimi va ular qanday tarbiyalashga tayyorliklari haqida ma'lumotlar yig‘iladi. Monitoring va kuzatuvlar o‘tkaziladi, yoshlar bilan ishlovchi tarbiyachilar, o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatlar baholanadi. Anketalar va testlar yordamida yoshlarning axloqiy va ijtimoiy savodxonligi o‘lchanadi. I.G.Seninning qadriyatlar yo’nalishlari savolnomasidan ham foydalanildi.

NATIJALAR. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiy bo‘lgan tizimni hosil qiladi, boshqa tamoyillar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog‘lanishda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimo ham ko‘zga tashlanavermaydi. Tarixiy rivojlanish jarayonida (obyektiv tarzda), jamiyat va kishilarning talab, ehtiyojlari natijasida (subyektiv tarzda) umuminsoniy qadriyatlar shakllaridan goh biri, goh boshqasi umumiy tizimning markaziga, hayotning oldingi pog‘onasiga chiqib oladi,

ISSN 3030-3907

masalan, yurtda dushmanlar hukmronlik qilganida – ozodlik, mustaqillik; yurt mustaqilligiga xavf tug‘ilganida – vatanparvarlik; milliy o‘zlikni anglash va milliy uyg‘onish davrida – tarixiy va madaniy merosni o‘rganishga intilish; urush sharoitida tinchlik va barqarorlikka ehtiyoj kuchayib boradi. Shu tariqa ijtimoiy jarayonlar rivojida umuminsoniy qadriyatlarning ma’lum bir shaklining dolzarbligi, boshqasining zarurligini bir qadar xiralashtirganday, ularning ayrimlari ideal holatga yaqinlashgandek, boshqalari esa ulardan uzoqlashgandek bo‘lib tuyuladi. Yoshlar tarbiyasi jamiyatning kelajagini belgilaydigan eng muhim omillardan biridir. Umuminsoniy qadriyatlar esa bu jarayonda asosiy yo‘riqnomalar bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarga umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatish, ularni axloqiy me'yorlar, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga, mas'uliyatli va adolatli fuqarolar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi (Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Nashriyoti)[1].

MUHOKAMA. Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar barcha uchun umumiy mezon bo‘lib qolganining bir qator sabablari bor: a) sayyoramizning dunyodagi barcha kishilar uchun, ularning irqi, millati, e’tiqodi va boshqa tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy belgilaridan qat’i nazar, eng umumiy va shu bilan birga, cheksiz koinotdagi mo‘jazgina makon ekani tobora yaqqolroq his etila boshlangani; b) dunyodagi ijtimoiy xilma-xillik, siyosiy va mafkuraviy rang-baranglik, turli xil ehtiyoj, qiziqish, maqsad, intilish, xatti-harakat, faoliyatning taraqqiyot talablariga mos keladigan eng umumiy ma’naviy mezonlariga muhtojlik sezila boshlangani; v) dahshatli qirg‘in qurollari, yadro urushi, ekologik bo‘hron va ma’naviy tanazzul kabi tahdidlar bilan yuzma-yuz kelish natijasida insoniyat kelajagi, sayyoramiz aholisi umumiy genofondining taqdiri xavf ostida qolgani, insoniyatning hozirgi avlodi mansub bo‘lgan tamaddunlarni saqlab qolish o‘ta muhim ahamiyat kasb etayotgani; g) kishilarning qanday ijtimoiy tuzum va davlatlarda yashashidan qat’i nazar, hamma joyda eng asosiy maqsad inson, uning hayoti, manfaatlari, haq-huquq va erkinliklari, odamlar uchun mazmunli, to‘kin va farovon turmushni ta’minlashda butun jahon ahamiyatiga molik universal texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari hamda ularni barcha harakatlarda qo‘llash imkoniyatlarining umumiyligi, bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun umumsayyoraviy hamkorlik zarurligi tobora ko‘proq anglab olinayotgani bilan izohlanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish uchun avvalo ularning mazmunini chuqur o‘rganish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar global miqyosda qabul qilingan inson huquqlari, adolat, tenglik va erkinlikka asoslanadi. Yoshlar uchun bu qadriyatlarni ongli ravishda singdirish orqali ularga jamiyatda o‘z o‘rnini topish, shaxs sifatida rivojlanish va barqaror ijtimoiy tizimni yaratish imkoniyati beriladi(Shodiev, M. (2016). Inson huquqlari

ISSN 3030-3907

va yoshlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi)[2].Odamlar o‘zlari va atrofdagilarning amaliy faoliyatini, biror sohadagi xatti-harakatlarini umuminsoniy qadriyatlar mezoni bilan solishtirib, mulohaza yuritadi, xulosa chiqaradi, baho beradi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish mahsuli ekani, barcha insonlarning manfaatlari, haq-huquqlari, orzu-umidlari hisobga olinishi darkorligini ko‘rsatadi. Bu insonning tabiiy-tarixiy haq-huquqlari uning yashash va umr kechirish huquqining tabiiyligi va muqaddasligini to‘liq e’tirof qilinishini anglatadi. Ana shu sababga ko‘ra, istiqlol yillarida mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyiliga nihoyatda katta e’tibor berilmoqda. Bu qadriyatlar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va tub o‘zgarishlarning asosiy mezoniga aylangani bejiz emas. Umuminsoniy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida to‘g‘ri axloqiy xulq-atvor, ijtimoiy javobgarlik va ma'naviy ongni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Yoshlar, o‘zaro munosabatlarda hurmat, adolat va inson huquqlariga e'tibor berish orqali jamiyatda o‘zaro yordam va hamjihatlikni rivojlantiradi. Bu qadriyatlar yoshlarning o‘zlarini va atrofdagi insonlarni hurmat qilish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, o‘z faoliyatlarini barqaror va etik me'yorlarga muvofiq amalga oshirishga yordam beradi(Xudoyberdiyev, O. (2018). Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: Yoshlar nashriyoti) [3]. Misol uchun, tenglikka asoslangan qadriyatlar yoshlarni jinsiy, irqiy va diniy tenglikni qadrlashga o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda diskriminatsiya va ksenofobiya kabi salbiy hodisalarning oldini olishga yordam beradi. Yoshlar orasida hurmat, adolat va tenglik qadriyatlarini singdirish orqali ularning boshqalarga nisbatan achchiqlik yoki nafrat tuyg‘ularini kamaytirish mumkin(Zohidov, A. (2020). Yoshlarning axloqiy rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston universiteti nashriyoti)[4].

XULOSA. Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar va usullar ilmiy ishning har bir bosqichida muhim ahamiyatga ega. Har bir metodning o‘ziga xos xususiyatlari va maqsadi bor bo‘lib, ular birgalikda ilmiy tadqiqotning chuqurligi va sifatini ta'minlaydi. Ushbu metodlar yordamida yoshlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, ahamiyati va ularni rivojlantirish yo‘llari aniq va samarali tarzda tahlil qilinadi. O‘zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo‘llar bilan kirib kelayotgan yot g‘oyalarga qarshi sog‘lom ma’naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.(O.Davlatov. “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati” “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023) [5].

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Nashriyoti.
2. Shodiev, M. (2016). Inson huquqlari va yoshlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Xudoyberdiyev, O. (2018). Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning o‘rni. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
4. Zohidov, A. (2020). Yoshlarning axloqiy rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston universiteti nashriyoti.
5. O.Davlatov. “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati” “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023.

ISSN 3030-3907